

## ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA MODERNCHA TASVIR

**Dilnoza Uralova Murodilla Qizi**

*FarDu ikkinchi bosqich tayanch doktoranti*

*E-mail: [dilnozaqochqorova86@gmail.com](mailto:dilnozaqochqorova86@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Adabiyot taraqqiyotida nasriy asarlarda ramziy obrazlarni qo‘llash masalasi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, badiiy adabiyotimizda ramzlar vositasida badiiy g‘oyani ifodalash salmoqli o‘rinni egallaydi. Ulug‘bek Hamdam ramzlarga o‘ziga xos yangi ma‘no ottenkalarini yuklagan holda takrorlanmas original ramziy tasvirlar yaratgani hamda ularni nasriy asarlarida ifodalash nuqtayi nazaridan tasniflash alohida ahamiyatga ega.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** obraz, ramz, hikoya, talqin, uslub, mantiqiy izchillik, voqelik, xarakter.*

Hozirgi zamon adabiyotshunosligida ramzlar shunchaki oddiy o‘xshatish emas, balki mazmuni va mohiyati murakkab badiiy vositadir. Chunki har qanday ramz o‘zining asl mohiyatidan tashqarida turuvchi predmetga yoki tushunchaga ishora qiladi. Butun turkiy adabiyot nasri va nazmining durdona asarlari salmoqdor qismini ramziy tasvir uslubi egallagan bo‘lib, uning rivoji va hozirgi kunda ham insoniyatning butun qiyofasi, kechinmalari ramzlar vositasida namoyon bo‘lishi timsollarning o‘rni adabiyotda nechog‘lik ustuvor ekanligidan dalolatdir.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi yangicha badiiy-estetik yangilanishlar bilan o‘zgarmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy pisixologizmining yangicha tasviriy vositalar, yangicha ramziy pisixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy-romantik to‘qima obrazlar talqini ham uchraydi.

Ijodkorning hikoyalarini tahlil etar ekanmiz, uning hikoyalarini shunchaki o‘qish mumkin emas, chunki har bitta jumlaning ortida bir dunyo fikr yotadi, ramzlarning mohiyatini anglash esa chuqur badiiy tafakkurni talab etadi. Yozuvchining “Musulmon “hikoyasida bir ota-ona farzandi bo‘lgan, bir paytda tug‘ilgan, bir xil muhitda yashagan Hasan va Husan obrazlari orqali insonlardagi e‘tiqodning shakli ikki xil rakursda ko‘rsatib beriladi. Nazarimizda, ijodkor Hasan va Husan obrazlari orqali e‘tiqod masalalarida aniq javob topa olmay yurgan insonlarga bir yechim sifatida keltirdi. Xususan, hikoya qahramonlaridan Hasan solim e‘tiqodni sidqidildan qilingan ibodatda ko‘radi, unga soya soluvchi har qanday voqea-hodisani chetga suradi. Husan esa e‘tiqodini ezgu amallari bilan namoyon qiladi. Jumladan, hikoyada Hasan va Husan ibodat qilmoqchi bo‘lib turganlarida qo‘shning bolasi qandaydir yumushga yordam so‘rab turganida Husan yordamga chiqib kech qaytadi, Hasan esa: “Avval ibodat, keyin madad”, – deya yordamga chiqmaydi. Yozuvchi shuning uchun ham Alisher Navoiy hazratlarining quyidagi misralarini epigraf qilib olgan bo‘lsa ajab emas:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin sho aylagay,

Oncha borkim, Ka’ba vayron bo’lsa obod aylag’ay.

Hikoyada Hasan va Husan obrazlaridan tashqari qushlar va daraxtlar singari ramziy timsollardan asar g’oyasini ochib berishda mohirona foydalanadigan. Hikoyaning boshi quydagicha boshlanadi: “Ko’klam keldi-yu, hovlidan bir qushcha ketmas bo’ldi” [Hamdam U.1:500]. Asarning avvalidayoq tasvirlangan qushcha hikoyamiz qahramonlariga asar yakuniga qadar hamroh bo’ladi. Hikoyada qushlar shunday tasvirlanadi: “Bir aftlari momosovg’aga o’xshaydi, boshqa tarafdin yodga soladi, lekin, ajab, ularning hech biri emas, hammasiga o’xshasayam baribir boshqa qush bular”. Nazarimizda, hikoyada tasvirlangan sirli qushlar inson qalbidagi halovat timsoli bo’lib kelgan. Ijodkor qushlar timsoli orqali inson qalbida iymoniga, e’tiqodiga ishonch ezgu amallari orqali halovat topishini ko’rsatib borgandek go’yo. Darhaqiqat, Husan doimo ezgu amallari orqali hammaga yordamini ayamaydi, buning natijasida doimo uning ko’ngli tinch-osuda, halovatda. Hasan esa ezgu amallaridan ibodatni birlamchi deb hisoblab, doimo ibodatga soya soluvchi voqea-hodisalarga nisbatan norozi kayfiyatda. Hikoyada tasvirlangan daraxt timsoli, nazarimizda, ezgu amallarning ramziy-majoziy tasviri sifatida asar badiiyatini ochishda xizmat qilgan. Husan doimo ezgu amallarni, insonlarga doimo yordam qo’lini cho’zgani bois qushlar doimo u bilan hamroh, tepasidan ketmas edi. Hasan va Husan otalari betob bo’lib qolganini eshitib, uylariga yo’l oladilar. Otasining sog’lig’i yaxshilangach, hovlidagi bog’larini Husan sayr qilish asnosida qushlar ham ularga hamroh bo’lib yetib kelgani, mayin xonishlarini eshitib hayratlanadi.”Qushlar bir maromda mayin kuylay boshladilar... Husanning qalbida yoqimli bir farog’at va allaqanday rizvoniy saodat tuyg’ulari qorishib ulkan mazmun-mohiyatga aylangandi”. Bundan bir inson qachonki ezgu amallar qilsagina qalbida halovat, osudalik hislarini tuyishi mumkinligini anglashimiz mumkin. Egizaklar ustida tinimsiz charx urayotgan sirli qushlar bir marta, o’shanda ham o’g’li tengi yigitchalar tepkilayotgan bir kimsani qutqarish uchun borganlarida o’zlarini g’alati tutadi. Husan nima qilishini bilmay serrayib turib qolgandi, ko’k yuzida paydo bo’lgan qushchalarning vijir-vijiridan sergak tortadi. Hasan esa masjid tomon odimlab, qushlar ham o’sha yoqqa uchib boradi. Husan yordam bergach, egizaklar masjidga kirishadi, shunda to’satdan masjid shiftidan ko’chib tushgan ganch parchasi bir qariyaning uvushib qolganidan tuzalib qolgan oyog’i ostiga tushadi. Shiftidan ko’chib tushgan ganch detali Hasanning yordamiga muhtoj bo’lgan insonga ko’mak bermay, ibodat sari oshiqishida qushlarning noroziligi bilan ziyon kelishligidan darak edi. Og’ir ahvolda qolgan, oyog’i singan egizaklar tashqariga olib chiqadilar. Qariyani og’ir ahvolda tashlab ketishga ko’zi qiymagan Husan uni kasalxonaga eltadi, Hasan esa masjidga kirib ketadi. Qushlardan biri kasalxonaga ketayotgan mashinaga ergashib parvoz qiladi. Hasan esa ibodatga

chorlayotgan azon tovushini eshitib, masjidga shoshadi. Unga ergashib uchib borayotgan esa bezovtalanib, charx uradi, keyin esa osmonga ko‘tarilib g‘oyib bo‘ladi. Qushlarning osmonga ko‘tarilib g‘oyib bo‘lishi agar inson o‘zining insoniylik burchini, vazifasini unutsa halovat ham uni tark etishini anglashimiz mumkin. Asar so‘ngida qushlar g‘oyib bo‘lishi bilan qiyg‘os gullagan o‘rik ham duvva to‘ka boshlaydi. Asardagi bu fitonimik timsol, ya‘ni o‘rik daraxti va uning gullari sof va samimiy e‘tiqod timsoli sanaladi. Ijodkorning moderncha badiiy tasvir vositalaridan foydalanishida “Tosh” hikoyasi ijodkorning qalbida ro‘y berayotgan tug‘yonlar, hayotdagi ba‘zi bir jarayonlarga turtki sifatida yaratilgan hikoyalardan biridir. Hikoyada tosh, sirtmoq, baliq, qiz, mo‘ysafid, quyosh ramziy obrazlariga duch kelamiz. Bu ramziy obrazlar yelkasida ulkan falsafiy mushohadalarning, asar badiiyati va g‘oyasini ochib beruvchi ochqich vazifasini bajargan. Hikoya qahramonning qalbiga tanda qo‘ygan tushkunlikning sababini izlashi, ritorik so‘rog‘i bilan boshlanadi. “Vaqt o‘tgan sari tushkunlik yuragimning tub-tubiga unib, mustahkamlanib, allaqanday jinnga, masalan, toshga aylanib borayotgandek”. Hikoyada tasvirlangan tosh timsoli inson qalbining qa‘rida yotgan iztirobning timsolidir. Xo‘sh, nega qahramon doim iztirobda, uni qalbini o‘rtaydigan tushkunlikka nima sabab? Hatto bu iztirob qahramonimiz bo‘yniga solingan go‘yoki sirtmoq.

Rus adiblaridan Dobroblyubovning “Dunyoni go‘zallik qutqaradi”,-degan falsafasini ko‘p eshitganmiz. Bu mushohadaga Ulug‘bek Hamdam:”Agar dunyoni go‘zallik qutqarganda nega o‘sha Yelena tufayli Troya urushi bo‘lib, qanchadan-qancha insonlar qurbon bo‘ldi. “Dunyoni go‘zallik emas, go‘zallikka bo‘lgan baland munosabat, ma‘naviy munosabatgina o‘zgartiradi” deydi ijodkor suhbatlarining birida. Inson qayerda go‘zallikni ko‘rsa, payqab qolsa o‘z mulkiga aylantirmoqchi bo‘ladi. Xususan, ochilib turgan gulni so‘ldiradi, o‘z go‘zalligi bilan tabiatga zeb berib turgan daraxtlarni yoqadi, hayvonot olamini qiradi, ya‘ni o‘z mulkiga aylantiradi, yaratganning ne‘matlarini xoh u inson bo‘lsin, xoh hayvonot va nabotot. Natijada qonli to‘qnashuvlar yuz beradi. Inson hayot go‘zalliklarini o‘z mulkimizga aylantirishga urinmay yonidan o‘tib ketishni ham bilishi lozim. Asarda tasvirlangan qizning portret chizginlaridan ham shuni anglashimiz mumkinki, qiz go‘zallik timsoli sifatida tasvirlangan “Nihoyat, endi topgandek edim o‘sha qimmatni jon tishiga arzigulik o‘sha borliqni” [Hamdam U.1:516]... Qahramon go‘zallik timsoli bo‘lgan qizning ortidan shirin xayollar bilan yurib baliq olish uchun navbatda turgan odamlarga urilib ketganini ham sezmay qoladi. Suvsizlikdan qiynalib baliqlar dam unisi, dam bunisi potrab osmonga sapchiydi, qahramonimiz shunda shoshib bizga qaraydi: “Yo piray, uning ko‘zlarida yovvoyi bir shavq o‘ynardi! “Baliqlar har sapchiganda sichqonga tashlanish oldida turgan mushukdek

negadir shaylanardi, shunda mening ko‘zimga qizning qip-qizil qonga botgandek ko‘rinadi” [Hamdam U.1:517]...“Bu tasvirlarda baliqning nafs timsoli sifatida tasvirlanganini payqashimiz mumkin. Donishmandlardan biri: “O‘z nafsini yengga olmagan inson hayotga hech bir ishga qo‘l urmagan inson”,- deganda haq edi. Darvoqe, o‘z nafsiga qul bo‘lgan insonni go‘zallik tark etadi. Ijodkorlarimiz aytganlaridek: “Go‘zallik va nafs hech qachon kelisha olmaydi. “Nazarimizda, shu kelisholmaslik natijasida qahramonimizning “Birdan ko‘nglim aynidi, ich-ichidan nimadir otilib keldi” deya o‘nggaysiz ahvolga tushadi. Bu go‘zallik va kelisha olmasligining isboti sifatida asarda tasvirlangan. Ijodkor tush vositasi bilan qahramonning ruhiy holatini talvasasini yoritib beradi: “Unda men qo‘limda tosh bilan ko‘chalarni kezar, duch kelgan odamning boshiga u bilan urar, qonatar ekanman, ko‘ngilga quloq tutsam, tog‘ning eng baland cho‘qqisiga chiqib, hayot debochasi-quyoshni toshbo‘ron qilishdek yovuz niyatda yonayotgan ekanman, hayolimda esa faqat manzara sotuvchi majaqlangan baliqning qontalash boshi va ayolning qip-qizil og‘zi aylana ,aylanar va aylanarmish....Qahramonimiz qalbidagi iztirob hayotda yuz berayotgan daxshatlarga chiday olmay, kuchli g‘azab, talvasaga aylanadi, hatto u toshbo‘ron qilishgacha bordi, chunki quyoshning barcha nabotot olamining ibtidosi shakllanishida ahamiyati beqiyos. Go‘yoki qahramonimiz qalbidagi tizginsiz g‘alayonlardan asarda tasvirlanganidek: “Shunda men o‘zimni bir yon-u, qolgan barcha odamlarni ikkinchi tomon deya qabul qilaman”. Nazarimizda, dunyo ahlining go‘zallik bobida qarashlari ikki tomon: go‘yo qahramonimiz kabi dunyoni go‘zalligini qalblardan qidiradigan va go‘zallikni tashqi qiyofasining mukammal yaratig‘ida deb biluvchilardir.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq –Toshkent. Akademnashr.: 2019.
2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. –T.: Yangi asr avlodi, 2002.
3. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари. ф.ф.н.дисс., –Т., 2008.
5. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T., 2006
6. Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат (Ў.Ҳошимов ва Н.Жалолиддин ҳикоялари мисолида). фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс., –Фарғона, 2018.
7. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini// Yoshlik, 2014, 1-son.
8. Rahmat R. “Vatan haqida qo‘shiq”ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N16 (187) 2014-yil 2-avgust.
9. Sabirdinov A. Ma’naviyat va ma’rifat chashmalari –Toshkent. Akademnashr.: 2016.
10. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти.1978. – Б.23-26.